



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



УДК: 633.111.1

**LALMIKOR SHAROITDA YUMSHOQ BUG'DOY (TRITICUM AESTIVUM L.) F2
DURAGAYLARINING FENOLOGIK RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

Amirov Otabek Haydar o'g'li

3-bosqich tayanch doktorant

Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti, G'allaorol shaxri

otabekamirovbio@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19239955>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada lalmikor sharoitda yetishtirilgan yumshoq bug'doy (*Triticum aestivum* L.) F2 duragaylarining fenologik rivojlanish bosqichlari tahlil natijalari keltirilgan. Tadqiqot jarayonida duragaylarning unib chiqish, boshqalash va donning pishish fazalarining davomiyligi tahlil qilindi. Fenologik kuzatuvlar asosida duragay shakllar va andoza nav o'rtasida rivojlanish sur'ati, vegetatsiya davri davomiyligi va erta pisharlik darajasi bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi.

Olingan natijalar lalmikor hududlarga moslashuvchan, qurg'oqchilikka chidamli va qisqa vegetatsiya davriga ega navlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yumshoq bug'doy F2 duragaylari ustida o'tkazilgan nazorat tajriba natijalaridan kelib chiqib, erta boshqalash va erta pishish fazasiga kirgan duragay tanlab olindi.

Kalit so'zlar: yumshoq bug'doy, avlod, duragay, unib chiqish, boshqalash, pishish, vegetativ, generativ, faza.

KIRISH

Iqlimning global isishi lalmikor mintaqalar tabiiy-iqlim sharoitlariga ta'siri sezilmoqda. Ob-havo qurg'oqchil kelgan yillarda hosildorlik keskin tushib ketadi. Ertapishar, don to'lishish fazasi qisqa kunlarda o'tadigan yumshoq bug'doy navlarini yaratish lalmi yerlarda don hosildorligining oshishini hamda issiqlik va qurg'oqchilik kabi noqulay ob-havo sharoitlarida ham barqaror don hosildorligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchilar ma'lumotiga ko'ra, don to'lishish davrida yuqori havo haroratining garmisel bilan birgalikda sodir bo'lishi tuproqda nam yetarli bo'lgan sharoitda ham bug'doy hosilini 30-50% miqdorda kamaytiradi [4].

Bahorgi yumshoq bug'doy namunalari boshqadagi don soniga may oyining ikkinchi va uchinchi dekadasi haroratning keskin ko'tarilishi juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori harorat natijasida boshqachalarda don hosil bo'lmaydi yoki rivojlanishdan orqada qolib ketadi [2].

Ertapisharlikni aniqlashda unib chiqishdan boshqalashgacha bo'lgan davr muhim ro'l o'ynaydi [3].

Дробыш А. В. ta'kidlashicha, seleksiya ishlarida eng muhim masalalardan biri ota-ona juftliklarini to'g'ri tanlash masalasidir. Navlar xilma-xilligini oldindan baholashning asosiy usuli bu nav namunalari biologik hosildorlik va hosil elementlarini qiyosiy o'rganishdir [1].

Adabiyotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, lalmikorlikda bug'doyning fenologik davrlari qisqa bo'lgan, intensiv don to'lishish xususiyatlari bilan xarakterlanadigan, ertapishar hamda yuqori hosilli bug'doy navlarini yaratish bugungi kundagi dolzarb vazifa.

NATIJALAR



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



Tajribada 7 ta F₂ avlodlar o‘rganildi (1-jadval).

1-jadval

F₂ duragaylarning kelib chiqishi.

Tr	F2 avlod nomi	Ona ♀	Ota ♂
D-168	F1-2024-2	17th SBWON-HT-14	SP2-109/2023/F2-50/2022/Tezpishar x XA-178
D-169	F1-2024-3	17th SBWON-HT-15	KSI-45/2023/Qizildon
D-170	F1-2024-5	Tezpishar	KP-99/2023/eritrospermum/spontan mutantlar 2022 (manas-2021)
D-171	F1-2024-6	Tezpishar	SP2-70/2023/KSI-18/2021/KSI-20/2020/SP-303/2016(Grekum-2023)
D-172	F1-2024-7	Tezpishar	UK 17-th SBWYT-HT-87
D-173	F1-2024-8	17th SBWON-HT-5	KSI-45/2023/Qizildon
D-178	F1-2024-9	SP221/2023/ Eritrospermum-2020	Tezpishar

Ertapisharlikni aniqlashda unib chiqishdan boshloqlashgacha bo‘lgan davr(vegetativ faza) muhim ro‘l o‘ynaydi. F₂ avlodlarning vegetativ fazasi andoza navga solishtirilganda (2024-yil) F₂ avlodlar va andoza nav 15-18-fevral unib chiqib 28-aprel 26-may oralig‘ida boshloqlagan, 30-may 26-iyun oralig‘ida to‘liq pishib yetildi. Duragay avlodlar va andoza nav vegetativ fazasi 70-98 kun oralig‘ida ekanligi kuzatildi. Unib chiqish-pishish muddati(generativ faza) 102-129 kunni tashkil etdi. Andoza nav (Tezpishar) 15-fevral unib chiqib 14-may boshloqladi, 14-iyun to‘liq pishib yetildi. Vegetativ fazasi 89 kun, generativ fazasi 120 kunni tashkil etdi.

Andoza navdan yaqqol ajralib turgan D-178 (F1-2024-9) -namuna vegetativ fazasi 18-fevral 28-aprelgacha, 70 kunda, generativ fazasi 102 kunda tugallanib, 30-may 2024-yil to‘liq pishib yetildi.

F₂ duragay avlodlarning vegetativ fazasi andoza navga solishtirilganda (2025-yil) duragaylar va andoza nav 20-26-fevral unib chiqib 24-aprel 20-may oralig‘ida boshloqladi. 30-may 18-iyun oralig‘ida to‘liq pishib yetildi. Duragaylar va andoza navning vegetativ fazasi 64-84 kuni, generativ fazasi 97-113 kunni tashkil etdi. Andoza nav 26-fevral unib chiqib 12-may boshloqlagan, 18-iyun to‘liq pishib yetildi. Vegetativ fazasi 75 kun, generativ faza 112 kunni tashkil etdi.

Andoza navga nisbatan D-178 (F1-2024-9) namuna vegetativ fazaga 11 kun kam vaqt, generativ fazaga 15 kun kam vaqt sarflagan (2025-yil). Ikki yillik kuzatish natijasida D-178 (F1-2024-9) duragay avlodi barcha vegetatsiya davrlarida andoza nav va qolgan duragay avlodlardan erta boshqalab pishib yetilganligi kuzatildi (2-jadval).

2-jadval

F₂ avlodlarning vegetativ va generativ fazalarini solishtirish
(G‘allaorol sh. 2024-2025-yillar).

Tr	F2 avlod nomi	Unib chiqish	Vegetativ faza	Boshloqlash	Standart dan farqi	Generativ faza	To‘liq pishish	Standart dan farqi
----	---------------	--------------	----------------	-------------	--------------------	----------------	----------------	--------------------



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



168	F1-2024-2	18.02.2024	92 kun	20.05.2024	-3	123 kun	20.06.2024	-3
		25.02.2025	78 kun	14.05.2025	-3	113 kun	18.06.2025	-1
169	F1-2024-3	18.02.2024	92 kun	20.05.2024	-3	122 kun	19.06.2024	-2
		25.02.2025	84 kun	20.05.2025	-9	113 kun	18.06.2025	-1
170	F1-2024-5	18.02.2024	98 kun	26.05.2024	-9	129 kun	26.06.2024	-9
		25.02.2025	80 kun	16.05.2025	-5	113 kun	18.06.2025	-1
171	F1-2024-6	18.02.2024	92 kun	20.05.2024	-3	121 kun	18.06.2024	-1
		26.02.2025	77 kun	14.05.2025	-2	112 kun	18.06.2025	0
172	F1-2024-7	18.02.2024	88 kun	16.05.2024	+1	121 kun	18.06.2024	-1
		26.02.2025	75 kun	12.05.2025	0	112 kun	18.06.2025	0
173	F1-2024-8	20.02.2024	90 kun	20.05.2024	-1	119 kun	18.06.2024	+1
		26.02.2025	77 kun	14.05.2025	-2	112 kun	18.06.2025	0
178	F1-2024-9	18.02.2024	70 kun	28.04.2024	+19	102 kun	30.05.2024	+8
		20.02.2025	64 kun	24.04.2025	+11	97 kun	28.05.2025	+15
177	Tezpishar (St)	15.02.2024	89 kun	14.05.2024	-	120 kun	14.06.2024	-
		26.02.2025	75 kun	12.05.2025	-	112 kun	18.06.2025	-

XULOSA

D-178 (F1-2024-9) namunada erta boshloqlash va erta pishish alomatlari kuzatilganligi sababli ertapishar navlar yaratishda foydalanish uchun boshlang'ich material sifatida tanlab olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo'riyeva D. Rahimova M. Yaxshimurodova F "Seleksion Materialni Baholash Usullari", Polish Science Journal. ISSUE 5(61).. 7-9b
2. J.Jandullayev., G.Qao'yenderova., A. Amanbayeva. "Bahorgi Bug'doy Navlarini Orolbo'yi Hududida Yetishtirish". Academic Research In Educational Sciences. Volume 4 | Issue 9 | 2023. 122-125b
3. Luo P.G., Ren Z.L. "Wheat Leaf Chlorosis Controlled By A Single Recessive Gene" J. Plant Physiol. And Mol. Biol- 2006. 330-338-bet.
4. Тарануха, Г. И. "Частная Селекция И Сортоведение Зерновых Культур"— Горки, 1987. 60-bet.